

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI .....	10
<b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	17
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI .....	21
<b>Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li</b>	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI .....	26
<b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH .....	34
<b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIVALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	40
<b>Akramova Feruza</b>	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	52
<b>Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan</b>	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI .....	59
<b>Nazarov Elbek</b>	
PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH .....	66
<b>Xidirova Saboxat Baxrillayevna</b>	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» .....	70
<b>Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI .....	77
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	82
<b>Normamatov A. A.</b>	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH .....	87
<b>Elboyeva Shaxzoda Olimovna</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	94
<b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	101
<b>Usmanov Sarvar Nigmatovich</b>	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
<b>Камариддинов Шохрух Акмал угли</b>	
SANOAT KLASTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI .....	113
<b>Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	119
<b>Normamatov A. A.</b>	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
<b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>	
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	128
<b>Maxmudova Nodira Uktamovna</b>	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
<b>Norqulov Shohbozbek Samandar ugli</b>	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
<b>Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	145
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
<b>Kilichov Nazar Bafoyevich</b>	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI .....	157
<b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH .....	164
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi</b>	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
<b>Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim</b>	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
<b>Ganiyev Botir Baxtiyorovich</b>	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	178
<b>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</b>	
DATA-DRIVEN STRATEGIK MENEJMENT: MA'LUMOTLARGA ASOSLANGAN BOSHQARUVNING ZAMONAVIY KORXONALAR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	184
<b>Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon</b>	
YASHIL BUXGALTERIYA (GREEN ACCOUNTING) VA ESG HISOBOTLARI: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK VOSITALARI .....	190
<b>Nematullayev Hamidullo, Bo'stonova Nilufar</b>	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ .....	196
<b>Нуралиева Мукаддас Мамуровна</b>	



AGROSANOAT MAJMUASIDA INVESTISIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA MUSTAHKAMLASH MASALALARI .....	201
<b>Xakimov Rashid</b>	
TADBIRKORLIKDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARALARI .....	206
<b>Salohiddinov Zuhridin Nuriddinjon o'g'li</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATINI TAHLIL QILISH .....	212
<b>Achilova Firuza, Zohidov Jamshid</b>	
NAMANGAN VILOYATINING BOSHQA HUDUDLAR BILAN TOVAR VA XIZMATLAR AYLANMASI HAMDA IQTISODIY ALOQALARINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	217
<b>Sattarov R.A.</b>	
ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ .....	222
<b>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</b>	
ОПТИК ABONENT KIRISH TARMOG'INING XIZMATLARI SAMARADORLIGI .....	230
<b>Uskenbayeva Dilfuza Shuxrat qizi</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK MODELLARINI TUZISH VA PROGNOZLASH .....	235
<b>Siroj Zarina Rustambekovna</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	242
<b>Berdiyev Abdumalik Hakimovich</b>	



# QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AGROKLASTERLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Berdiyev Abdumalik Hakimovich**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

ORCID: 0009-0003-2842-9802

Email: [a.berdiyev197501@gmail.com](mailto:a.berdiyev197501@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qishloq xo'jaligini barqaror va innovatsion rivojlantirishda agroklasterning o'ri hamda ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Agroklasterning modelini ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, ilm-fan va bozor subyektlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, agroklasterning faoliyatining qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari agroklasterning rivojlantirish qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi, agroklasterning, agrar iqtisodiyot, integratsiya, kooperatsiya, qo'shilgan qiymat zanjiri, samaradorlik, raqobatbardoshlik, investitsiya, eksport, import, barqaror rivojlanish.

**Аннотация:** В данной статье с научной точки зрения раскрыты роль и значение агрокластеров в обеспечении устойчивого и инновационного развития сельского хозяйства. Проанализирована роль модели агрокластера в формировании цепочки создания добавленной стоимости посредством усиления интеграции между субъектами производства, переработки, логистики, науки и рынка. Кроме того, обосновано влияние деятельности агрокластеров на повышение конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции, эффективное использование ресурсов, привлечение инвестиций, расширение экспортного потенциала, а также обеспечение продовольственной безопасности. Результаты исследования свидетельствуют о том, что развитие агрокластеров является одним из важнейших институциональных механизмов модернизации сельского хозяйства и повышения его экономической эффективности.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, агрокластер, аграрная экономика, интеграция, кооперация, цепочка создания добавленной стоимости, эффективность, конкурентоспособность, инвестиции, экспорт, импорт, устойчивое развитие.

**Abstract:** This article scientifically examines the role and significance of agro-clusters in the sustainable and innovative development of agriculture. It analyzes the contribution of the agro-cluster model to the formation of value chains by strengthening integration among agricultural production, processing, logistics, scientific institutions, and market participants. Furthermore, the study substantiates the impact of agro-clusters on enhancing the competitiveness of agricultural products, improving the efficient use of resources, attracting investments, expanding export potential, and ensuring food security. The research findings demonstrate that the development of agro-clusters represents one of the key institutional mechanisms for the modernization of agriculture and the improvement of its economic efficiency.

**Keywords:** agriculture, agro-cluster, agricultural economy, integration, cooperation, value chain, efficiency, competitiveness, investment, export, import, sustainable development.

## KIRISH

Jahon tajribasi agrar sohadagi izchil islohotlar iqtisodiy o'sish, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va bozor mexanizmlariga moslashtirish maqsadida agroklasterning tizimiga o'tish strategik yo'nalish sifatida belgilandi.

Respublikamizda agroklasterning 2017–2018-yillardan boshlab bosqichma-bosqich joriy etildi. Prezident farmon va qarorlari asosida paxta-to'qimachilik, g'allachilik hamda meva-sabzavotchilik yo'nalishlarida ishlab chiqarish–qayta ishlash–sotish zanjirini qamrab olgan integratsiyalashgan tuzilmalar shakllantirildi. Bunda fermerlar bilan uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, moliyaviy va soliq imtiyozlari berish, zamonaviy qayta ishlash quvvatlari va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Agroklasterning tizimi qo'shilgan qiymat zanjirini yaxlitlashtirish orqali agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2020–2024-yillarda paxta tolasining asosiy qismi mamlakat ichida qayta



ishlanishi ta'minlanib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu holat agrar tarmoqni sanoatlashtirish va tashqi savdo balansini yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Agrar islohotlarning huquqiy asosi sifatida qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari yer munosabatlarini liberallashtirish, fermerlar va agroklastlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda investitsiyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, agroklastlar tizimiga o'tish mamlakatimiz qishloq xo'jaligida strategik transformatsiya jarayonini ifoda etadi. Davlat siyosati, xususiy sektor tashabbusi va innovatsion texnologiyalarning uyg'unligi mazkur modelning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Buni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son<sup>1</sup> Farmoni agrar sohada chuqur o'zgarishlar yo'lini belgilab bergan muhim hujjat hisoblanadi.

Mazkur Strategiya mamlakat qishloq xo'jaligida tub burilish yasash, iqtisodiy va institutsional asoslarni yangilash hamda tarmoqni barqaror rivojlantirishga qaratilgan yo'nalishlar tizimini o'z ichiga oladi. Unda belgilab berilgan to'qqizta ustuvor yo'nalish qishloq xo'jaligi sohasidagi eng dolzarb masalalarning yechimini ta'minlashga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agroklastlar iqtisodiy jihatdan texnologik bog'liq va hududiy yaqin joylashgan korxonalarining yagona maqsad sari raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan birlashgan faoliyatini anglatadi. Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish jarayonida geografik yaqinlik va kooperatsion aloqalarni mustahkamlash agroklastlar tizimining institutsional va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

"Klastlar" atamasi ingliz tilidagi "cluster" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, lug'atda "o'xshash yoki bir xil elementlar guruhi, to'plami, yig'indisi" ma'nosini anglatadi. Dastlab u matematika va tabiiy fanlarda umumiy xususiyatlarga ega birliklarni tasniflashda qo'llangan.

Iqtisodiyot sohasida "klastlar" atamasi 1970-yillarda shved iqtisodchilari K.Fredriksson va L.Lindmark<sup>2</sup> tomonidan muayyan hududda joylashgan korxonalar to'planishini ifodalashda qo'llangan.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi chuqur va o'zaro bog'liq transformatsiyalar, institutsional, texnologik hamda tarkibiy o'zgarishlarning jadallashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu jarayonlar jahon miqyosida iqtisodiy munosabatlarning yangi modellarini shakllantirib, zamonaviy rivojlanish nazariyalari evolyutsiyasiga nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xorijlik iqtisodchi olim M.Kastels zamonaviy ishlab chiqarish tahlilida ommaviy ishlab chiqarish modelidan moslashuvchan tizimga o'tish, ya'ni fordizmdan postfordizmga transformatsiyani asosiy tendensiya sifatida ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, an'anaviy fordizm vertikal integratsiyaga asoslangan yirik korporatsiyalar doirasida standartlashtirilgan mahsulotlarni konveyer usulida ommaviy ishlab chiqarish va masshtab samaradorligiga tayangan edi<sup>3</sup>.

Shu nuqtai nazarni E.Toffler ham qo'llab-quvvatlaydi. U texnosfera va infosferadagi o'zgarishlar ta'sirida ishlab chiqarish mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilganini ta'kidlab, jamiyat ommaviy ishlab chiqarishdan moslashuvchan, individuallashtirilgan va murakkab mahsulotlar ishlab chiqarish tizimiga o'tayotganini qayd etadi.<sup>4</sup>

So'nggi o'n yilliklar tajribasi yangi iqtisodiy tizimda tashkiliy shakllarning asosan tarmoq tamoyillari asosida rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Zamonaviy nazariya va amaliyotda agroklastlar samarali tashkiliy model sifatida e'tirof etilib, axborot almashinuvi, resurs va bilimlar integratsiyasi hamda texnologik hamkorlikni kuchaytirish orqali ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlaydi.

M.Porter ta'kidlaganidek, klastlar — muayyan geografik hududda shakllanuvchi tuzilma bo'lib, unda firmalar va turli institutlar o'zaro yaqin joylashgan holda faoliyat yuritadi. Joylashuv yaqinligi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlab, ishtirokchilarning innovatsion salohiyati, raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi.<sup>5</sup>

1 <https://lex.uz/docs/-4567334>

2 Fredriksson, C.G., Lindmark, L.G. From Firms to Systems of Firms: A Study of Interregional Dependence in a Dynamic Society. In F.E.I. Hamilton & G.J.R. Linge (eds.), *Spatial Analysis, Industry and the Industrial Environment: Progress in Research and Applications*, vol. 1: Industrial Systems (pp. 155–186). John Wiley & Sons. 1979.

3 Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общество, культура: пер. с англ./ Под научн. ред. Шкаратана О.И.; Гос. ун-т Высш. шк. экономи-ки. – М., 2000. – 608 с.

4 Тoffлер Э. Третья волна. – М.: ООО «Издательство АСТ», 2002. – 776 с.

5 Портер М. Э. Конкуренция. – М.: Издательский дом Вильямс, 2005. – 608 с.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agroklasterning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini baholashda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy va mantiqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish hamda iqtisodiy tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, agroklasterning faoliyatining ishlab chiqarish samaradorligi, qo'shilgan qiymat yaratish va raqobatbardoshlikka ta'siri mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agrar sohada islohotlar samaradorligini oshirishda agroklasterning tizimi zamonaviy boshqaruv mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Agroklasterning innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash orqali ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda agroklasterning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ichki resurslardan samarali foydalanish va fermer xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Agroklasterning joriy etilishi paxta-to'qimachilik tarmog'ida tizimli o'zgarishlarni ta'minladi. 2024-yilda mamlakatda paxta tolasini qayta ishlash darajasi 100 foizga yetganligi, bu natija esa "xomashyodan tayyor mahsulotgacha" bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirining to'liq shakllanganini va tarmoqda vertikal integratsiya ta'minlanganini anglatadi.

Agroklasterning asosiy ustunligi paxta yetishtirish, uni chuqur qayta ishlash hamda tayyor to'qimachilik mahsulotini eksport qilishgacha bo'lgan uzluksiz texnologik va iqtisodiy zanjirni yaratishdan iborat. Paxtani 100 foiz ichki qayta ishlash darajasiga yetkazish va eksport hajmini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tarmoq raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi. Shu tariqa paxta-to'qimachilik agroklasterning sohada qo'shilgan qiymat zanjirini to'liq shakllantirishga erishdi.

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda paxta-to'qimachilik agroklasterning agrosanoat majmuasining yetakchi bo'g'iniga aylandi. Paxtani chuqur qayta ishlash yo'nalishida umumiy quvvati 17,4 ming tonna bo'lgan 140 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Ularning umumiy qiymati 18,9 trln so'mni tashkil etdi va natijada 42,3 mingdan ortiq doimiy ish o'rinlari yaratildi.

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda paxta-to'qimachilik agroklasterning milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanib, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish hamda hududiy resurslardan samarali foydalanishda muhim o'rin egallamoqda. Xususan, agroklasterning tomonidan 29,1 ming gektar foydalanishdan chiqqan sug'oriladigan yer maydonlarining qayta o'zlashtirilishi yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlab, hosildorlikni oshirish va qo'shilgan qiymat zanjiri barqarorligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Bu davrda agroklasterning nafaqat xomashyo ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki uni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish yo'nalishlarida ham sezilarli natijalarga erishdi. Bu esa zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, resurslardan tejamkor foydalanish va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda tashkil etish imkoniyatini yaratdi.


Investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilmoqda va qayta ishlash darajasi chuqurlashmoqda. Moliyalashtirish ko'rsatkichlariga ko'ra, 68 ta agroklasterning 10,0 mln AQSh dollaridan ortiq, 14 ta agroklasterning 5–10 mln dollar miqdorida, 6 ta agroklasterning esa 5 mln dollargacha investitsiya jalb etgan. Bu holat tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligi va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyasining izchil amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, keltirilgan ko'rsatkichlar paxta-to'qimachilik agroklasterning qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini to'liq shakllantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyatini yanada mustahkamlaganini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari maqsadli va samarali o'zlashtirilgan investitsiyalar korxonaning turi va iqtisodiy faoliyat xususiyatidan qat'i nazar, uning barqaror rivojlanishini, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishini va iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashishini ta'minlovchi muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, innovatsiyalarni joriy etish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga yo'naltiriladigan moliyaviy, moddiy hamda intellektual resurslar majmuasidir. U iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va aholi bandligini kengaytirishning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo viloyatida 1 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan investitsiya miqdori tahlil qilindi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida 1 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan investitsiya miqdori, mln. so'm<sup>6</sup>

Qashqadaryo viloyatida 2020–2024-yillar davomida 1 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan investitsiya miqdori barcha agroklasterturlari bo'yicha pasayish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatadi. Tahlilga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich g'allachilik agroklasterlarida kuzatilib, u 2020-yildagi 0,65 mln so'mdan 2024-yilda 0,59 mln so'mga tushgan. Paxta-to'qimachilik agroklasterlarida mazkur ko'rsatkich 0,57 mln so'mdan 0,51 mln so'mga, meva-sabzavotchilik agroklasterlarida esa 0,51 mln so'mdan 0,41 mln so'mga kamaygan.

Mazkur holat agroklasterlarda investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi nisbatan oshganini, ya'ni 1 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun avvalgi yillarga nisbatan kamroq investitsiya talab etilganini anglatadi. Shu bilan birga, tahlil davomida g'allachilik agroklasterlari investitsiya sig'imi eng yuqori, meva-sabzavotchilik agroklasterlari esa eng past darajani tashkil qilgan. Bu esa tarmoqlar kesimida kapital sig'imi va investitsiya qaytishi darajasi o'zaro farqlanishini ifodalaydi.

Erishilgan natijalar paxta-to'qimachilik agroklasterlarining qisqa muddatda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishib, ishlab chiqarish–qayta ishlash–eksport zanjirining barqaror rivojlanishini ta'minlaganini ko'rsatadi. Shu bois ushbu modelni meva-sabzavotchilik, g'allachilik, sholichilik va boshqa qishloq xo'jaligi tarmoqlarida keng joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Mazkur chora-tadbirlar qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksportbop mahsulotlar hajmini kengaytirishga qaratilgan bo'lib, agrar sektor islohotlarining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Natijada agroklasterlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish hamda aholi bandligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

G'allachilik va meva-sabzavotchilik agroklasterlari infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish agrar sektor samaradorligini oshirish, qishloq hududlarida bandlikni kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik agroklasterlari zamonaviy infratuzilma asosida faoliyat yuritib, ular tarkibida 210,7 ming tonna sig'imli sovutkichli omborxonalar, 843,6 ming tonna quvvatli qayta ishlash korxonalar, 43,5 ming tonna qadoqlash va 45,2 ming tonna saralash sexlari mavjud. Mazkur infratuzilma mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va eksport jarayonlarining uzluksizligini ta'minlamoqda.

Agroklasterlarni tashkil etishda eksportga yo'naltirilganlik, tashqi bozordagi raqobatbardoshlik, zamonaviy infratuzilma, samarali boshqaruv va marketing tizimi hamda kooperatsion aloqalarni rivojlantirish asosiy mezon sifatida belgilanadi. Ushbu yondashuv resurslardan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Shuningdek, meva-sabzavotchilik agroklasterlari faoliyati fermer xo'jaliklari bilan kooperatsiyani kuchaytirish, qo'shilgan qiymat zanjirini integratsiyalash, agrotexnologiya va boshqaruv bo'yicha malaka oshirish, hududiy jihatdan yaqin joylashtirish tizimini takomillashtirish hamda yangi tashqi bozorlarga chiqishga qaratilgan mexanizmlar asosida rivojlantirilmoqda.

Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligida tizimli hal etilishi zarur bo'lgan qator muammolar ham mavjud. Ularni bartaraf etish hamda paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik va boshqa agroklasterlar hamda fermer xo'jaliklari faoliyatini samarali qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarga ustuvor ahamiyat berish kerak deb hisoblaymiz:


- sohada shaffoflikni ta'minlash va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish;

6 Qashqadaryo viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari.

• qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi tizimida zamonaviy axborot platformalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish;

• yagona raqamli qishloq xo'jaligi axborot portalini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.


Tadqiqotlar natijasida olingan xulosalar va chora-tadbirlar, bizning fikrimizcha, agrar sektorni modernizatsiyalash, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda agroklastlar va fermer xo'jaliklari biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Qashqadaryo viloyati agroklastlarida eksport hajmi ko'rsatkichlari dinamikasi, ming AQSh dollari<sup>7</sup>

Qashqadaryo viloyati agroklastlarida eksport hajmi 2020-yilda 46 402,18 ming AQSh dollaridan 2024-yilda 126 114,69 ming AQSh dollariga yetgan bo'lib, bu tahlil davrida qariyb 2,7 barobar o'sgan. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab o'sish sur'atining sezilarli tezlashgani kuzatilib, 2023 va 2024-yillarda yuqori natijalar qayd etilgan.

Mazkur dinamika agroklastlarda tashqi bozorga yo'naltirilgan ishlab chiqarish faoliyati kengaygani, mahsulotlarni qayta ishlash darajasi va eksport salohiyatining oshganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, eksport hajmining muttasil o'sishi agroklastlar faoliyatida raqobatbardoshlik, bozor infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalar samaradorligi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti va import hajmi ko'rsatkichlari dinamikasi, ming AQSh dollari<sup>8</sup>

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashqi savdo ko'rsatkichlari, xususan, eksport hajmi 2020-yilda 122 111 ming AQSh dollaridan 2024-yilda 323 371 ming AQSh dollariga yetgan bo'lib, qariyb 2,6 barobarga oshgan. Import hajmi esa mazkur davrda nisbatan past darajada saqlangan holda 11 143,2 ming dollardan 16 453,6 ming dollarga o'zgaragan.

Tahlil natijalari eksport o'sish sur'ati importga nisbatan ancha yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022–2024-yillarda eksport hajmining keskin ortishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi, qayta ishlash darajasi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish salohiyati kuchayganini ifodalaydi. Shu bilan birga, import hajmining cheklangan miqyosda qolishi hudud tashqi savdo balansining eksport ustunligi asosida shakllanganini anglatadi. Bu esa Qashqadaryo viloyati agrar sektorida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi izchil mustahkamlanib borayotganini tasdiqlaydi.

Eksport hajmining oshishi esa agroklastlarning xomashyoni qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot sifatida sotish bozorlarini kengaytirish hisobiga shakllanadi.

Hozirgi kunda barcha korxonalar oldidagi asosiy maqsad ishlab chiqarilgan mahsulotlarini eksport qilish va

7 Qashqadaryo viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari.

8 Qashqadaryo viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari.



eksportyor korxonaga aylanishdir. Bu bo'yicha respublikamizda yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Eksportyor korxonaga aylanish samaradorlik, sifat va raqobatning shakllanishiga olib keladi. Natijada korxonaning nufuzi respublikamizda, qolaversa, butun dunyoda o'z mavqeyiga ega bo'ladi. Shunday ekan, korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qilishga intilishlari va shunga erishish uchun barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim.

Eksport geografiyasi keng bo'lib, Turkiya, Rossiya va Xitoy asosiy sheriklar sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, Germaniya, Polsha, Belorussiya, Italiya kabi Yevropa davlatlari hamda Bangladesh, Pokiston, Eron va Misr kabi Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ham savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan. Bu Qashqadaryo paxta-to'qimachilik agroklastlarining xalqaro bozorda muayyan raqobatbardoshligini tasdiqlaydi (1-jadval).

#### 1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2024-yil eksport qiymati bo'yicha yuqori natijalarga erishgan agroklastlar to'g'risida ma'lumot<sup>9</sup>

T/r	Agroklast nomi	Hudud	Jami eksport qiymati (mln. AQSh dollari)	Asosiy yo'nalish
1.	"Cluster Khilal" MCHJ	Qarshi	8100	Ip-kalava
2.	"Cluster Khilal" MCHJ	Kasbi	3900	Ip-kalava
3.	"Indorama Agro" XK MCHJ	Kasbi	104	Ip-kalava
4.	"Chiroqchi Cluster" MCHJ	Chiroqchi Ko'kdala	15,3	Asosan tayyor mahsulot
5.	"Bunyodkor" MCHJ	Koson	13,3	Mato va tayyor mahsulot

Tahlil natijalariga ko'ra, "Cluster Khilal" MCHJ Qarshi va Kasbi tumanlari kesimida mutlaq yetakchi mavqega ega ekani aniqlandi. Mazkur agroklasterning 12 mln AQSh dollaridan ortiq eksport hajmi hududdagi boshqa agroklastlar ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib, uning paxta-to'qimachilik sanoatida yetakchi "lokomotiv" sifatida faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "Indorama Agro" XK MCHJ 104,0 mln AQSh dollari va "Bunyodkor" MCHJ 13,3 mln AQSh dollari qiymatida eksportni amalga oshirib, yuqori eksport salohiyatiga ega subyektlar sifatida keyingi o'rinlarni egallaydi (2-jadval).

#### 2-jadval

Qashqadaryo viloyatida tayyor mahsulot eksport qiluvchi agroklastlar to'g'risida ma'lumot<sup>10</sup>

№	Agroklast nomi	Hudud	Tayyor mahsulot miqdori (tonna)	Qiymati (mln. AQSh dollari)	Asosiy bozorlar
1.	"Chiroqchi Cluster" MCHJ	Chiroqchi, Ko'kdala	1395	9,3	Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarboyjon, Italiya
2.	"Bunyodkor" MCHJ	Koson	457,5	3,05	Xitoy, Turkiya, Rossiya
3.	"Original Cotton Mirishkor" MCHJ	Mirishkor	300,0	2,0	Rossiya, Turkiya
4.	"Qamashi Textile" MCHJ	Qamashi	690,0	0,5865	Rossiya

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Chiroqchi Cluster 9,3 mln AQSh dollari miqdoridagi eksport hajmi bilan tayyor mahsulot eksporti bo'yicha mutlaq yetakchi hisoblanadi. Korxonaga asosan bozorga mo'ljallangan mato va tayyor kiyim-kechak mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib bermoqda. Shuningdek, Bunyodkor hamda Original Cotton Mirishkor agroklastlari ham tayyor mahsulot eksportida salmoqli ulushga ega.

Qamashi Textile va Oqsaroy Textile korxonalari asosan mato ishlab chiqarish va qisman tayyor mahsulot eksportiga ixtisoslashgan bo'lib, bu hududda to'qimachilik zanjirining yuqori bosqichlariga o'tish jarayoni shakllanayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tayyor mahsulotga ixtisoslashgan agroklastlar hajm jihatidan nisbatan kichik bo'lsa-da, mahsulot qiymati yuqori. Jumladan, "Chiroqchi Cluster" 1 395 tonna mahsulot hisobiga 9,3 mln AQSh dollari

9 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

10 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



tushumiga erishgan va qiymat samaradorligi yuqori ekanini hamda jahon standartlariga yaqinlashganini anglatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida paxta-to'qimachilik agroklastlarida iqtisodiy samaradorlikning o'sib borayotgani kuzatiladi. Biroq mazkur o'sish asosan yirik, moliyaviy jihatdan barqaror va ishlab chiqarish quvvati yuqori bo'lgan agroklastlar hisobiga ta'minlanayotgani aniqlandi. Shu bois kelgusida tarmoq samaradorligini yanada oshirish uchun resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, qayta ishlashni kengaytirish, shuningdek, iqtisodiy jihatdan nisbatan zaif agroklastlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida agroklastlar faoliyatini yanada samarali tashkil etish uchun xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va xatarlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Ichki nazorat va monitoring tizimlarini kuchaytirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

2020–2024-yillardagi rivojlanish dinamikasi agroklastlarning investitsiya bosqichidan barqaror foydalilik bosqichiga o'tganini ko'rsatadi. Bugungi kunda ularning faoliyati barqarorlik, yuqori foydalilik va eksport salohiyatining oshishi bilan xarakterlanadi. Shu bois agroklaster modelini yanada rivojlantirish Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2-sonli Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-6351331>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-4567334>
3. Abduraxmonov Q.X. Agrosanoat klasterlarining hududiy rivojlanishga ta'siri. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, Toshkent. 2022, №2. 18 b.
4. Berdiyev A.H. Klasterlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning natijalari va samaradorligi. // "Soliq va Hayot" jurnali. 4-son 2025 yil. 37-47-betlar. [www.soliqvahayot.uz](http://www.soliqvahayot.uz)
5. Berdiyev A.H. Agroklastlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. // "Innovatsion iqtisodiyot" jurnali. 4-son 2025 yil. 12-19-betlar.
6. Berdiyev A.H. Agroklastlar samaradorligini oshirish yo'llari. // "Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. 2-son 2025 yil. 127-133-b.
7. Berdiyev A.H. Agroklastlar samaradorligini oshirish yo'llari. // Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellektni rivojlantirish va zamonaviy matematikani o'qitish muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi-2025. 164-172-betlar.
8. Berdiyev A.H. Agroklastlarida paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish va qayta ishlash integratsiyasi istiqbollari. // Intellektual axborot tizimlari va raqamli transformatsiya jarayonlarining innovatsion yechimlari. Xalqaro ilmiy - amaliy anjuman materiallari. Qarshi-2026. 215-219-betlar.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)